



CHO‘LPON NASRIY ASARLARIDA DIALEKTIZMLARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

*Akramjonova Gulandom. Andijon davlat
pedagogika instituti O‘zbek tili va
adabiyoti
kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon nasriy asarlari, xususan, “Kecha va kunduz” romani misolida dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari va badiiy-funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif qahramonlar xarakterini va milliy koloritni shakllantirishda dialektal leksikaning o‘rnini ko‘rsatib beradi. Tadqiqotda sof leksik dialektizmlar, qarindoshlik va murojaat birliklari hamda ijtimoiy muloqot shakllari misolida sheva so‘zlarining matndagi semantik va emotsional bo‘yoqdorligi, personajlar nutqini individuallashtirishdagi roli va uslubiy vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon nasri, “Kecha va kunduz”, lingvopoetika, dialektizm, sof leksik dialektizm, qarindoshlik leksikasi, nutqni individuallashtirish, hududiy kolorit, Farg‘ona shevasi.

Аннотация. В данной статье на примере прозаических произведений Абдулхамида Сулейман оглы Чулпана, в частности романа «Ночь и день» (Kecha va kunduz), анализируются лингвопоэтические особенности и художественно-функциональные возможности диалектизмов. Автор показывает роль диалектной лексики в формировании характеров персонажей и национального колорита. На примере собственных лексических диалектизмов, терминов родства и форм обращения, а также форм социального общения в исследовании освещаются семантическая и эмоционально-экспрессивная окраска диалектных слов в тексте, их роль в индивидуализации речи персонажей и стилистические функции.



Ключевые слова: Проза Чулпана, «Ночь и день», лингвопоэтика, диалектизм, лексический диалектизм, лексика родства, индивидуализация речи, региональный колорит, Ферганский диалект.

Abstract. This article analyzes the linguopoetic characteristics and artistic-functional potential of dialectisms based on the prose works of Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, specifically through his novel "Night and Day" (Kecha va kunduz). The author highlights the role of dialectal vocabulary in shaping character traits and national color. Through examples of proper lexical dialectisms, kinship and address terms, as well as forms of social communication, the research explores the semantic and emotional expressiveness of dialect words in the text, their function in individualizing characters' speech, and their stylistic roles.

Keywords: Cholpon's prose, *Night and Day*, linguopoetics, dialectism, lexical dialectism, kinship terms, speech individualization, regional color, Fergana dialect.

O'zbek milliy adabiyoti va tili rivojida XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti, xususan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodi alohida va salmoqli o'rin tutadi. Cho'lpon nafaqat otashin shoir, balki o'zbek realizm nasriga asos solgan, so'z san'atining nozik qirralarini chuqur his etgan yetuk adibdir. Badiiy asarda til — bu shunchaki muloqot vositasi emas, balki qahramon ruhiyatini ochib beruvchi, davr va muhit muhitini tasvirlovchi asosiy estetik omildir. Cho'lpon nasrida adabiy til me'yorlari bilan bir qatorda xalq shevalari unsurlaridan, ya'ni dialektizmlardan o'rinli va mahorat bilan foydalanilgani e'tiborga loyiqdir.

Dialektizmlar badiiy matnda shunchaki tasodifiy lisoniy birliklar sifatida emas, balki muayyan uslubiy hamda semantik vazifalarni bajarish uchun xizmat

qiladi. Cho‘lpon o‘zining nasriy asarlarida, xususan, “Kecha va kunduz” romani va hikoyalarida qahramonlar nutqini individuallashtirish, mahalliy koloritni vaqti-vaqti bilan yorqinroq aks ettirish hamda tasvirlanayotgan voqelikning hayotiyligini oshirish maqsadida sheva so‘zlariga murojaat etadi. Dialektizmlarning semantik doirasi maishiy turmush, urf-odat, insoniy munosabatlar va ruhiy holatlarni ifodalashda adabiy tildagi sinonimlariga qaraganda ta’sirchanroq va jozibaliroq ma’no qirralarini namoyon etadi.

Ushbu maqolada Cho‘lpon nasriy asarlari misolida dialektizmlarning qo‘llanish darajasi, ularning badiiy matndagi semantik (ma’noviy) yuklamalari va uslubiy (badiiy-tasviriy) xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Adibning xalq tiliga bo‘lgan hurmati va undan mahorat bilan foydalana olishi o‘zbek badiiy nasrining til taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi kontekstida yoritib beriladi.

Cho‘lpon nasriy asarlarining tili xalqona ifodalarga boyligi, dialoglarning tabiiyligi va personajlar nutqining individuallashtirilganligi bilan ajralib turadi. Adib qahramonlarini faqat tashqi qiyofa, xatti-harakat yoki muallif tavsifi orqali emas, ularning qanday gapirishi, qaysi so‘zlarni tanlashi va qanday grammatik shakllardan foydalanishi orqali ham xarakterlaydi. Cho‘lponning til vositalarini badiiy maqsadga muvofiq tanlashi va obraz ruhiyatiga mos uslub yaratishi adib ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham qayd etilgan¹.

Leksik dialektizmlar ma’lum hudud vakillari nutqida qo‘llanib, adabiy tilda boshqa shakldagi muqobilga ega bo‘lgan so‘zlardir. Ularning asosiy qismi

¹ Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004.; Қуронов Д. Чўлпон поэтикаси: насрий асарлари асосида: филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998.; Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи тили мисолида): филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2000. – 145 б.; Неъматова Д.С. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: филол. фан.номз. дисс. – Тошкент, 2004. – 146 б.; Ibragimova F.E. Cho‘lpon she’riyatida takrorning lingvopoetik xususiyatlari // Tafakkur ziyosi. – 2023. – № 3. –B. 130-132.; Uzoqova Y. Cho‘lpon publitsistik maqolalarining leksik xususiyatlari tahlili // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2024. – № 4. – B. 670–672.; Hamidova M.X. Cho‘lpon she’riyatining lingvistik tahlili // Ilm-fan xabarnomasi. – 2025. – J. 10. – № 2. – B. 1826-1832.

predmet, harakat, belgi, miqdor yoki munosabatni mahalliy nom bilan ifodalaydi. Cho‘lpon nasridagi leksik dialektizmlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1. Sof leksik dialektizmlar. 2. Etnografik dialektizmlar. 3. Emotsional-baholovchi dialektizmlar. 4. Dialektal-so‘zlashuv birliklari.

Sof leksik dialektizmlar. *Onaning rozilik so‘zlariga bu birgina «lekin» elchib kelganidan, bechora qizlar sevinish to‘lqinlarini yana bir qur ko‘tarishga fursat topolmadilar (Cho‘lpon, Kecha va Kunduz).* Mazkur parchada elchimoq fe‘li qo‘llangan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysi shevalarida *ergashmoq, ketidan bormoq, biror narsaga qo‘shilib kelmoq* ma’nolarini anglatadi. “O‘zbek xalq so‘zlari” lug‘atida ham mazkur birlik “ELCHIMOQ (Farg‘ona) – ergashmoq²” shaklida izohlangan va, aynan, Cho‘lpon romanidan olingan ushbu jumla misol sifatida keltirilgan.

Keltirilgan kontekstda fe‘l ko‘chma ma’noda qo‘llanib, Qurvonbibining rozilik so‘zlaridan keyin muqarrar ravishda keladigan e’tirozning obrazli ifodasini yuzaga keltirgan. Muallif mavhum tushuncha “lekin”ni jonlantirib, uni rozilik ortidan ergashib kelayotgan to‘siq sifatida tasvirlaydi. Romanning boshqa o‘rnida esa ushbu birlik Miryoqubning mingboshi ketidan muntazam yurishini ifodalab, o‘zining to‘g‘ri lug‘aviy ma’nosida ishlatilgan: *Mingboshining ketidan elchib yurardi (Cho‘lpon. Kecha va kunduz).* Shevadagi elchimoq va adabiy tildagi ergashmoq leksemalari shaklan boshqa-boshqa bo‘lsa-da, ayni bir harakat tushunchasini anglatadi. Shu sababli elchimoq Cho‘lpon nasridagi sof leksik dialektizm sifatida baholanadi. Uning qo‘llanishi matnga Farg‘ona vodiysi jonli nutqiga xos hududiy kolorit olib kirish bilan birga, muallif bayonining xalqona va obrazli xususiyatini ham kuchaytirgan.

² Musayeva F. O‘zbek xalq so‘zlari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B.103.

Qarindoshlik va murojaat leksikasiga oid dialektizmlar. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi hududiy birliklardan biri **kelinbibi** leksemasidir. *O‘tgan kuz biznikiga mehmon bo‘lib kelishdi-ku – kelinbibisi bilan birga? O‘shanda necha marta kishi yuborib chaqirtirdim, bormadingiz, otangiz javob bermadi...* (Cho‘lpon. *Kecha va kunduz*). **Kelinbibi** birligi nikoh orqali yuzaga kelgan qarindoshlik munosabatini anglatadi. Uning semantik tarkibida “oilaga kelin bo‘lib tushgan ayol”, “yoshi nisbatan katta ayol qarindosh”, “hurmat” va “yaqinlik” semalari mujassamlashgan. Birlik tarkibidagi *bibi* komponenti nomlanayotgan ayolning oiladagi mavqeyi va unga nisbatan hurmat munosabatini kuchaytiradi. Adabiy tilda bu tushuncha ko‘proq *yanga* yoki *kelinoyi* shakllari bilan ifodalanadi. Shevadagi *kelinbibi* hamda adabiy tildagi *yanga* shakllari butunlay farqlanib, bir xil qarindoshlik munosabatini bildirgani uchun mazkur birlik sof leksik dialektizm hisoblanadi. Cho‘lponning bu so‘zni qo‘llashi personajlarning hududiy nutqini tabiiylashtiribgina qolmay, o‘zbek oilasidagi yosh va mavqega asoslangan munosabatlar tizimini ham aks ettiradi.

Romanda buvi ma’nosini ifodalovchi katta ona birikmasi ham qo‘llangan: *Saltining onasi bilan katta onasi uni o‘zi tenglik yosh qizlar bilan birga olis joyga yuborarkan, ehtiyot tomonini ham unutmagan edilar.* (Cho‘lpon. *Kecha va kunduz*.) Mazkur birlik keyingi kontekstda murojaat va qarindoshlik munosabatini yanada aniqroq ko‘rsatadi: **Katta ona** nevarasining bu erkaligiga faqat erkalik debgina qaragan, shu uchun: – *Aylanay, bolam, patiringni yop! Kechga qolayotirsiz. Bu siz aralashadigan ish emas! – deb qo‘yib, yana o‘zining «eslik» kelini bilan maslahatini davom ettirgan edi.* (Cho‘lpon. *Kecha va kunduz*.) O‘zbek shevalarida *katta ona*, *katta oyi*, *katta buvi* kabi shakllar onaning yoki otaning onasini, ya’ni buvini ifodalovchi hududiy qarindoshlik nomlari sifatida ishlatiladi. *Katta ona* birikmasida *katta* komponenti predmetning hajmini emas, avlodlar o‘rtasidagi ierarxik munosabatni anglatadi. U “ona avlodidan bir pog‘ona yuqori turuvchi

ayol” ma’nosini yuzaga keltirgan. Shu sababli birikma tuzilishiga ko‘ra sifat va otning erkin bog‘lanishidan tashkil topishi bilan birga buvi ma’nosida yaxlitlashgan dialektal qarindoshlik nomini ham ifodalagan. Uning semantik tarkibida “katta avlod vakili”, “oiladagi yuqori mavqe”, “hurmat”, “maslahat berish huquqi” hamda “mehribonlik” semalari birlashadi. Katta onaning Saltiga “*aylanay, bolam*” deb murojaat qilishi bu munosabatning nafaqat ierarxik, balki emotsional jihatdan ham yaqinligini ko‘rsatadi.

Ba’zan rasmiyroq muloqot vaziyatida *xo‘p bo‘ladi* shakli qo‘llanadi. Masalan: – *Xo‘p bo‘ladi. Ortiqcha ishim ham yo‘q. (Cho‘lpon. Kecha va kunduz).* Miryoqubning noyib to‘raga bergan javobida *xo‘p bo‘ladi* birligi rozilik, tayyorlik va topshiriqni qabul qilish ma’nolarini bildiradi. “*Xo‘p*”ning “*bo‘ladi*” fe’li bilan birikishi tasdiqni yanada muloyim, odobli va rasmiyroq shaklga keltiradi. Shu sababli bu birlik dialogda ijtimoiy masofa va muomala madaniyatini ko‘rsatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, adib asarda dialektizmlardan shunchaki maishiy bezak yoki tasodifiy unsurlar sifatida emas, balki **aniq badiiy-lingvistik maqsadlar** yo‘lida unumli foydalangan.

Farg‘ona vodiysi shevalariga xos sof leksik dialektizmlar (*elchimoq, kelinbibi, katta ona* va b.) adabiy tildagi muqobillaridan o‘zining semantik va emotsional bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadi. Ular asarda nafaqat real hududiy koloritni shakllantiradi, balki abstrakt tushunchalarni jonlantirish hamda nutqqa metaforik jilo berishga xizmat qiladi.

Qarindoshlik va murojaat birliklari orqali personajlar nutqi individuallashtirilgan. Bu vositalar milliy mentalitet, oilaviy ierarxiya, hurmat hamda qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy va ruhiy masofani tabiiy aks ettirish imkonini bergan.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lponning dialektal leksikadan oqilona foydalanish mahorati uning qahramonlari harakterini nutq orqali ochib berish,



asar tilini xalqonalashtirish hamda o‘zbek nasrida betakror lingvopoetik uslub yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Cho‘lpon. Asarlar. To‘rt jildlik. 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
3. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
4. Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004.
5. Куронов Д. Чўлпон поэтикаси: насрий асарлари асосида: филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998.
6. Berdialiyeu, A. O‘zbek dialektologiyasi [Matn]: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Yoqubov, H. Cho‘lponning badiiy mahorati [Matn]. – Toshkent: Fan, 1997.
8. Karimov, N. Cho‘lpon: Hayoti va ijodiy merosi [Matn]. – Toshkent: Ilm ziyo, 2014.

